

O‘ZBEK TILIDA PARAFRAZALARNING ANTROPOSENTRIK ASPEKTD O‘RGANILISHI

Utegenova O‘g‘iloy Pardavayevna

O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich magistranti

utegenovaugiloy@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada parafrazalarning matn bilan bog‘liq holda organish, subyektiv omil, nutq vaziyati va obyektga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib, qayta nomlovchi ikkilamchi nom tasviriy ifodaning yuzaga kelishi haqida so‘z yuritilgan. Bugungi kunda tilshunoslikda ommalashgan kognitiv lingvistika bilan bog‘liqligi yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** parafraza, antroposentrik aspect, kognitiv bilim, ikkilamchi nominativ birlik.*

ABSTRACT

This article discusses that periphrases units are the texts depended on speech moment, individual person. The fields of periphrases are being investigated in cognitive linguistics because of being second nominative parole.


***Key words:** periphrases, antropocentric aspects, cognitive knowledge, second nominative parole.*

Kirish

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda tilni antroposentrik aspektida o‘rganish, ya‘ni nutq ishtirokchilari, nutq vaziyati bilan bog‘liq holda o‘rganish har qachongidan ham zarur. Parafraza nutq birligi hisoblanib, turg‘un birikmalardan farqlanadi. Matn orqali tahlil qilish mumkin bo‘lgan parafrazalar so‘zlovchining ruhiyati, dunyoqarashi, olam va odam haqidagi tushunchalari natijasi o‘laroq idrok qilinadi. Sistem-stuktur aspektida o‘rganish subyekt ishtirokisiz ham amalga oshirilishi mumkin. Parafrazalar turkumga ajratilgan, izohlangan, matndan alohida o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida tasviriy ifodalar badiiy, publitsistik va og‘zaki uslubda qo‘llaniladi. Til birligiga aylangan parafrazalar bor, omma uchun tanish, ko‘p bora nutqda ifodalangani sababli til mulkiga aylandi. Ular oq oltin, qora oltin, g‘azal mulkining sultoni-Alisher Navoiy, dala malikasi-makkajo‘xori kabi tasviriy ifodalardir. Ularning ba‘zilari rus tilidan kalkalab olingan bo‘lsa-da, nutqda faol qo‘llaniladi. Quyidagi zamonaviy tilshunoslik sohalarida parafraza o‘rganilmoqda va tatqiqot olib borilmoqda.

Parafrazalar hosil bo‘lishida ong osti, xotira, tasavvur, idrok ishtirok etadi. Bu kognitiv tilshunoslik bilan bog‘liq. Har bir millatga xos tasvir vositalari urf-odati,

turmushi, hayot tarzi orqali namoyon bo‘ladi va bu lingvokulturologiya fanida o‘rganiladi. Bilim bilan bog‘liqligi esa kognitiv tilshunoslikda namoyon bo‘ladi.



Metodlar. O‘zbek tilshunosligida ilk bor H. Shamsiddinovning “Perifraza xususida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida parafrazalarning til va nutqqa munosabati, parafrazaning yondosh hodisalardan farqli va o‘xshash jihatlari, lisoniy va nutqiy parafrazalar haqida ma’lumotlar berilgan. Keyin I. Umirov “O‘zbek tili parafrazalari” nomli nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Ilk bor monografik planda ham I. Umirov o‘rgandi. H. Shamsiddinov parafrazalarni badiiy uslubdan ko‘ra publitsistik uslubda ko‘proq qo‘llanilishini ta’kidlasa, I. Umirov badiiy uslubda parafrazalar nisbatan ko‘proq ifodalanishiga doir misollar keltirib o‘tadi. har ikki olim ham parafrazalarni nutq birligi deb hisoblaydi. Ilk bor qo‘llanilayotgan tasviriy ifodalar qo‘shirnoqqa olinishi zarur, hamma uchun tushunarli, tilda ko‘p bor takrorlangan parafrazalar bugun til birligiga aylanib ulgurdi. Masalan. Oq oltin, qora oltin, g‘azalmulkining sultoni kabi misollarni keltiradi H. Shamsiddinov.

Mukokama va natijalar.

Tilshunoslikda parafrazalar o‘z o‘rniga va salmog‘iga ega bo‘lib, obrazlilik, emotsional-ekspressivlikni ta’minlovchi vositalardan biridir. Ular badiiy, publitsistik, so‘zlashuv uslublarida salmoqli o‘rin egallaydi. Badiiy uslub murakkab matndan iborat, matn bilan bog‘langan holda parafrazalar tahlil qilinadi. Har bir yozuvchining individual kognitiv yondashuvi nasr va nazmning badiiyligini, jimjimadorligi va so‘zning ta’sirchanligini oshiradi.

Birgina Alloh so‘zining badiiy asarlarda yozuvchilar tomonidan turlicha nomlanishi ularning idrok mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

Denotant	Asarda parafrazalarning ifodalanishi	Asar nomi va muallifi
A	Butun borlig‘sohibi	Alisher Navoiy “ Muhokamat ul-lug‘atayn”
L	Xudovandi taborak va taolo	Abdurauf Fitrat “ Najot yo‘li”
L	Janobi Haq	Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”
O	Yaratgan egam	Mahmud Toir To‘rtliklar”
H	Haq Taolo	Kaykovus “Qobusnoma”
	Yagona najotkor	Abdulla Oripov “Sohibqiron”
	Barcha go‘zalliklar sohibi	Abu Nars Farobiy “Fozil odamlar shahri”

Badiiy asar uslubida parafrazalar idrokning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Parafrazalar o‘xshatishga asoslanadi ammo o‘xshatilayotgan va o‘xshayotgan obyekt yoki subyektning muhim belgisi, o‘ziga xos xususiyati beriladi. O‘quvchidan keng bilim, chuqur mushohada talab qiladi.

Xulosa

O‘zbek tilshunosligida parafrazalar kognitiv tomondan yoritilishi, insonning olam va odam haqidagi bilimi, dunyoqarashi, salohiyatini ko‘rsatuvchi asosiy til birligi hisoblanadi. Bundan tashqari parafrazalarda xalqning madaniyati, mentalitetiga xos jihatlari aks etadi. Ikkilamchi nominativ til birligining yondosh hodisalardan farqli jihati ham shu mezon bilan o‘lchanadi. Bugungi kunda parafrazalarni antroposentrik aspektida o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

References

1. H. Shamsiddinov “Perifrazalar xususida ayrim mulohazalar” maqolasi. O‘TA. 1993-yil, 35-36 b.
2. I. Umirov “O‘zbek tili parafrazalari” nomzodlik disser. 1996-y. 17-23b.
3. I. Umirov va R. Rasulov “O‘zbek tilida parafrazalarning izohli lug‘ati” Toshkent-1996. 32-b.